

## BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATEMATIKADAN SINFDAN TASHQARI ISHLARNI TASHKIL ETISHNING NAZARIY ASOSLARI

**Sultanov Turdali Muxtaraliyevich**

Chirchiq davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi

**Musayeva Aziza Isayevna**

290-umumiy o'rta ta'lim maktabining o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Mazkur maqola o'quvchilarni sinfdan tashqari ishlarini tizimli tashkil qilishga yordam beradi. Bunda o'quvchilarni matematika fanidan masala yoki misollarni echish jarayonida ulardan to'g'ri foydalanish malakalarini rivojlantirishda qaratilgan.

**Kalit so'zlar:** matematik matbuot, matematik viktorina, matematik devoriy gazeta.

Sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish Matematikadan «sinfdan tashqari ish» deyilganda o'quvchilarning darsdan tashqari vaqtda tashkil qilingan, dastur bilan bog'liq bo'lgan material asosida ixtiyoriylik tamoyiliga asoslangan mashg'ulotlar tushuniladi. Sinfdan tashqari ishlar o'quvchilarning matematik bilimlarini chuqurlashtirish va kengaytirish, murakkab misol va masalalarni yechishni mashq qilish, matematikaning hayot bilan bog'liq bo'lgan tomonlarini ochadigan va dasturga kirmagan ba'zi savollar bilan tanishtirishni maqsad qilib oladi.

Sinfdan tashqari ishlarning maqsadi: Sinfdan tashqari mashg'ulotlar o'quv jarayonini mustahkamlash va o'quvchilarni fanlarga qiziqishini shakllantirish, darslarda faollashtirish, ma'naviy tarbiya berish, tasavvur va tafakkurni rivojlantirishga, shuningdek, sinfdan tashqari ishlarning mazmun va mohiyati teran va boy mazmunga ega bo'lib samarali bilim salohiyatiga ega bo'lish kasb hunarga qiziqtirishga ham xizmat qiladi.

Sinfdan tashqari ishlarning vazifalari: bolalarda ijodkorlik tuyg'ularini rivojlantirish, biri bilan samimiy yaxshi munosabatda bo'lish, birini hurmat qilishga o'rgatish; bolalarda ijodiy faoliyatning turli qirralariga jalb etish; . sinfdan tashqari ishlar uchun ijodkorlik va muqobil shart sharoitlardan foydalanishga yo'naltirish; bolalarni bilim va ko'nikmalarini tizimini aniqlash; ta'lim – tarbiya jarayonida fanlardan o'zlashtirishi qiyinchilikka duch kelgan o'quvchilar bilan korreksion ishlar olib borish. boshlang'ich sinflarda informatika Elementlariga oid dastlabki ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan pedagogik dasturiy majmuasini tayorlash.

Sinfdan tashqari ishlar orqali quyidagilar amalga oshiriladi: bilimlarni va amaliy ko'nikmalarni chuqurlashtirish hamda kengaytirish; o'quvchilarning mantiqiy tafakkurlarini, topqirliklarini, matematik [ziyakliklarini rivojlantirish](#); matematikaga qiziqishlarini orttirish, qobiliyatli va layoqatli bolalarni topish, talabchanlik, irodani tarbiyalash, mehnatga muhabbat, [mustaqillik](#), uyushqoqlik va insoniylikni tarbiyalash. Matematik to'garak matematikadan tizimli sinfdan tashqari ishning eng ko'p tarqalganidan biri. Uning asosiy vazifasi matematikaga alohida qiziqish ko'rsatgan o'quvchilar bilan bajariladigan chuqurlashtirilgan ish. Matematika to'garagini o'tkazish uchun oldindan uning ish rejasini tuzish kerak.

**Matematik matbuot:** boshlang'ich sinflarda chiqariladigan gazetalar va o'tkaziladigan viktorinalar mazmunini ko'proq [topishmoq](#), boshqotirgich, rebuslar va boshqa xildagi qiziqarli materiallar tashkil qiladi va ularning maqsadi o'quvchilarning matematikaga qiziqishlarini orttirishdan iborat bo'ladi. Boshlang'ich sinflarning matematika gazetasi [rangli qilib bajariladi](#), masala va misollar rasmlarda beriladi va qiziqarli xarakterda bo'ladi.

**Matematik viktorinalar** gazetalaridan farqli ravishda faqat o'quvchilarga yechish uchun beriladigan masalalar va savollardan iborat bo'ladi. Javoblar yozma ravishda ma'lum vaqt ichida o'qituvchiga yoki shu ish topshirilgan o'quvchiga beriladi. Muddat o'tishi bilan olingan javoblar qaraladi va g'olib o'quvchilar aniqlanadi.

**Matematik konkruslar va olimpiadalar.** Matematik konkruslar qiyin masalalar echish, o'tkir zehn va tez tushuna olishni talab qiluvchi topshiriqlarni bajarish bo'yicha o'ziga xos musobaqalardir. Matematik konkruslar [asosan yaxshi matematikni](#), tez tushunadigan, payqaydigan, ziyrak, yaxshi sinfni aniqlash maqsadida o'tkaziladi.

Konkrus mavzusi va uni o'tkazish vaqti oldindan belgilanadi. Masalan: [masalalar echish](#); og'zaki va yozma hisoblashlar; geometrik topshiriqlar va hakoza. Matematik olimpiadalar matematik konkruslardan farqli [ravishda yirikroq masshtabda](#), maktabning bir sinfi emas, balki hamma sinflarini jalb qilgan holda o'tkaziladi. Olimpiadalar yiliga bir marta matematik qobiliyati ko'proq o'quvchilarni aniqlash maqsadida o'tkaziladi.

Maktab olimpiadasini maktab direktori tasdiqlagan komissiya boshqaradi. Komissiya [topshiriqlarning mazmunini](#), qatnashchilarni tanlash shartlarini aniqlaydi, olimpiada o'tkazilish vaqtini belgilaydi. Olimpiadalarni o'tkazishdan oldin unga tayyorgarlik ishlari bajariladi.

**Matematik matbuot:** boshlang'ich sinflarda chiqariladigan gazetalar va o'tkaziladigan viktorinalar mazmunini ko'proq [topishmoq](#), boshqotirgich, rebuslar va boshqa xildagi qiziqarli materiallar tashkil qiladi va ularning maqsadi o'quvchilarning matematikaga qiziqishlarini orttirishdan iborat bo'ladi. Boshlang'ich sinflarning matematika gazetasi [rangli qilib bajariladi](#), masala va misollar rasmlarda beriladi va

qiziqarli xarakterda bo'ladi. **Matematik viktorinalar** gazetalardan farqli ravishda faqat o'quvchilarga yechish uchun beriladigan masalalar va savollardan iborat bo'ladi. Javoblar yozma ravishda ma'lum vaqt ichida o'qituvchiga yoki shu ish topshirilgan o'quvchiga beriladi. Muddat o'tishi bilan olingan javoblar qaraladi va g'olib o'quvchilar aniqlanadi.

**Matematik devoriy gazeta, viktorinalar**, odatda, matematik burchak deb ataluvchi joyga osib qo'yiladi, bu burchakda bulardan tashqari matematikadan ko'rsatmali qurollar, har xil gazetalardan qirqib olingan, Vatanimiz yutuqlarini ifodalovchi son ma'lumotlar, har xil mashinalarning tezliklari haqidagi, bolalarga ko'proq tanish mollarning baholari, oziq-ovqatlar narxlari ifodalangan materiallar yopishtirilgan albomlar, «Bilasizmi?» nomi ostidagi qiziqarli matematik ma'lumotlar to'plami bo'lishi mumkin.

**Matematik ekskursiyalarning** maqsadi- aniq hayotiy fakt va taassurotlarni talab qilish, bular o'quvchilarni shu faktlar bilan turmushda uchrashtirish yo'li bilan olinadi. Boshlang'ich sinflar o'quvchilari bilan ekskursiyalar o'tkazish muhim qiyinchiliklarga bog'liq va o'qituvchidan puxta tayyorlanishni talab qiladi: o'qituvchi ekskursiya o'tkaziladigan joyga oldin borib, ko'rib kelishi ekskursovodga qanday formada tushuntirib berish haqida, ekskursiya vaqti haqida ko'rsatmalar berishi kerak. Ekskursiya o'tkazishdan maqsad nimaligi bolalarga tushunarli bo'lishi nihoyatda muhimdir, shunday bo'lganda bolalar oldindan nima qilishlari kerakligini va o'zlarini qanday tutishlari kerakligini bilib oladilar.

Xulosa qilib aytganda, umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinflarida matematikadan to'garaklarni muntazam ravishda olib borish zarur deb hisoblaymiz va maqolada ishlab chiqilgan metodik tavsiyalardan bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari foydalanishlari mumkin.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh.Alimov va boshqalar «Algebra» 9 sinf, «Algebra va analiz asoslari» 10-11 sinf, Toshkent-2020.
2. R.Drayver Nega matematika? Toshkent 1989 yil. 276 b.
3. Saydaliyeva L.M O'quvchilarga qadimiy masalalar yechtirish orqali mantiqiy tafakkurini shakllantirish Chirchiq 2022 yil
4. Saxaev M. «Algebradan masalalar to'plami» T. «O'qituvchi», 1987 yil.